Климатическая политика и «зеленая» трансформация: Торговля углеродными единицами (Углеродная торговля) 1730
Исламов Шохзод Шухрат ўғли

O‘zbekistonda kichik va o‘rta biznes sohasining rivojlanish tendensiyalarini ekonometrik modellarini tuzish asosida baholash 1738
Arzikulov Otabek Ali o‘g‘li, Xudoyorova Ruhshona Toshpo‘lot qizi

Ikkilamchi bozorda noturar joy ko‘chmas mulk qiymatini baholashning huquqiy mexanizmini takomillashtirish 1743
Fayziyeva Gulnoza Abdurahmonovna

O‘zbekiston da yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning strategik yo‘nalishlari 1749
Otaxonova Dinora Musaboy qizi

Tibbiy xizmatlarning rivojlanish evolutsiyasi va samaradorlik hamda xarajatlari tushunchalarining mohiyati 1754
Axmedov Zafarjon A’zamovich, Karabayev Sanjar Abdusamatovich, Uraqov Shokir Ulashovich

Kichik biznes korxonalarda sanoat ishlab chiqarish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar 1762
Axmedova Nilufar Shuxratovna, Amirov Zubaydulla Toir o‘g‘li

Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish sharoitida yoshlarning ish bilan bandlik darajasini oshirish yo‘llari 1768
Sharipov Sherzod Shavkatovich

Paxta-to‘qimachilik klasterlarida buxgalteriya hisobotlarini yuritishning muhim jihatlari 1772
Madartov Bahrom Quvondiqovich

Aksiyadorlik jamiyatlarida o‘z kapitali hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida yuritishni takomillashtirish 1776
Axmedov Latayibxon Mamitxonovich

Reklama xizmatlari bozorida raqobatbardoshlikni oshirish yo‘llari 1780
Xamrakulov Azamat Baxritdinovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida xizmatlar sohasini rivojlantirish tendensiyalari 1785
Seytimbetov Kabul Serimbetovich

O‘zbekiston va islom taraqqiyot banki: hamkorlik va rivojlanish istiqbollari 1789
Dilovarxo‘jayeva Dilnozaxon Shavkatxo‘ja qizi

Xodimlarni rag‘batlantirish tizimida mehnatga haq to‘lash 1793
Xamdamov Nuriddin Abdimalikovich

Mahalliy budjet daromadlarini shakllantirishda soliqlarning tutgan o‘rni 1797
Kimsanboyeva Maftuna Baxodirovna

Dunyo mamlakatlarida xorijiy talabalar oqimi tahlili va ta’lim eksportining demografik salohiyati 1802
Abdullayev Javoxir Jaxongirovich

Davlat qarzini boshqarish amaliyotini takomillashtirish 1809
Djurayev Paxlavonjon Usarovich

Mintaqada chakana savdoni rivojlantirish istiqbollari 1815
Ismoilov Shohjahon O‘tkir o‘g‘li, Abdullayev Ilyos Sultanovich

Yuk tashish sohasini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish 1819
Omarov Mamanbiy Allabergenovich

Mathematical statistics in biology and medicine 1826
Vokhidov Alikul, Orazbaeva Ayjamal, Tog‘amurotova Jasmina, Turopova Dildora

“Yashil” energetika salohiyatini ro‘yobga chiqarishda xatarlar va muammolar: O‘zbekiston sharoitida tahlil va yechimlar 1833
Nasretdinov Nodir Tulqinovich

Aglomeratsiyalar ekologik barqarorligi: koreya respublikasi tajribasi va o‘zbekistonda uni qo‘llash imkoniyatlari 1837
Shohruh Shuhrat o‘g‘li Mardonov

Sanoat sohasida energiya samaradorligini oshirishning iqtisodiy va ekologik afzalliklari 1843
Iminov Farxodjon Tohirjonovich

Современные принципы и дальнейшее совершенствование налогового администрирования в узбекистане 1848
Буранова Лола Вахобовна, Рахимова Шахло Ражапбоевна

Роль малого и частного бизнеса в инновационном развитии экономики узбекистана: сравнительно-аналитический подход 1858
Мадраимова Согдиана Равильевна

Sayyohlarning shikoyatlarini ko‘rib chiqish va ularning huquqiy huquqlarini tiklash mexanizmlari 1864
Sayfiddinov Sharofiddinxo‘ja Najmiddin o‘g‘li

Sanoat korxonalarida inqrozga qarshi boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish 1869
Muxammadov Umarjon Muxammad o‘g‘li

Xalqaro kompaniyalarda Big Data va biznes jarayonlarini innovatsion boshqarish 1885
To‘g‘onov Ibrohimxo‘ja, Mardiyev Bunyod Sirojiddin o‘g‘li

Transport vositalari egalari fuqarolik javobgarligi sug‘urtasini rivojlantirishning zamonaviy yo‘nalishlari 1889
Darxanova Umida

Tijorat banklarida moliyaviy injiniring konsepsiyasini mustahkamlashni takomillashtirish 1895
Saipnazarov Sherbek Shaylavbekovich

O‘zbekistonda aholi farovonligini ta’minlash yo‘llari 1902
Ibragimov Elmurod Gulboynor o‘g‘li

“Uzsuvta’minot” aj tizim tashkilotlarida biznes jarayonlari bo‘yicha boshqaruv hisobini tashkil etish uchun hisob tizimining xususiyatlari 1906
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich

Ways to develop and stimulate innovative activity of the enterprise 1909
U. Yusupov, Ye Junjie

Трансформация мировой торговли: путь от протекционизма к свободному рынку на примере узбекистана 1914
Олимова Насиба Акмаловна, Камилова Наргиза Абдукахоровна

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

Xalqaro tajribada mulkni qayta baholash metodlari: O‘zbekiston uchun moslashtirish imkoniyatlari 1920
Xadjayev Kamoliddin Fazliddinovich

O‘zbekistonda professional futbol klublarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish 1924
Mirzayev Ulug‘bek Abdusattarovich

Raqamli iqtisodiyot sharoitida tijorat banklarining xizmat turlarining huquqiy asoslari 1931
Umurzoqova Adiba Ochilovna

Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarishni tashkil etish va innovatsion rivojlanish tendensiyalari 1937
Haqberdiyev Ulug‘bek Nasrullo o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi tijorat banklarida biznes ekotizimini takomillashtirishning nazariy asoslari 1944
Shoymardonov Orziqul Jo‘ra o‘g‘li

The impact of intensive urbanization in tashkent on economic stability, environmental conditions, and demographic processes 1949
Khandamirdzhanova B.M., Shoislomova Komila Batyrovna

Barqaror rivojlanish va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari 1956
Maksudova Shaxzoda

Ish bilan bandlik darajasiga makroiqtisodiy omillar: aholi jon boshiga yaim, inflatsiya, oliy ta’lim bilan qoplanish darajasining ta’sirini baholash 1961
Usmonov Ibrat Bobomurod o‘g‘li

Mintaqaviy iqtisodiyotlarda kapital qo‘yilmalarning determinantlari: qoraqalpog‘istonda aholi va budjet daromadlarini ekonometrik o‘rganish 1966
Sarsenbayev Baxitjan Abdulgaziyevich, Kengesbayeva Suliuxan Maxsetbay qizi, Kengesov Diyorbek Umidovich

Klasterlash asosida xizmat ko‘rsatishni rivojlantirishning muhim xususiyatlari 1970
Mirzayev Qulmamat Jonuzoqovich, Rabbimov Abror Mehriddin o‘g‘li

Bugungi kunda inson kapitalidan to‘g‘ri foydalanish 1975
Dushaboyev Lazizjon Baxrom o‘g‘li

Urban aglomeratsiyalar sharoitida yer osti inshootlariga ta’sir etuvchi geologik xavflarni kompleks baholash 1983
Irgashev Shavkatbek Turdiyevich

Hududlar kesimida ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik indikatorlarini ishlab chiqish va baholash usullari 1987
Ibragimov Baxrom Baxodirovich

Роль кооперации и агрокластеров в повышении эффективности мясомолочного производства 1991
Абдуллаев Жасурбек Абдижаббoрович

Markaziy osiyo davlatlarida qishloq xo‘jaligi sektorining rivojlanishi va uning iqtisodiy ahamiyati 1996
Voxidova Mehri Xasanovna, Xolxo‘jayev Eldorxo‘ja G‘olibjon o‘g‘li

Raqamli iqtisodiyot sharoitida elektron hujjat aylanishining samaradorligini rivojlantirish 2002
Baxtiyorova Dildora

Moliyaviy institutlarning yashil kredit siyosati 2008
Sotivoldiyev Asadulloh Axadjon o‘g‘li

Tadbirkorlik subyektlari faoliyatini innovatsion boshqarish usullari 2012
Ismatov Olimjon Aminjonovich

Xizmat ko‘rsatish soxasini rivojlanishning muommolarini mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish 2016
Abdualimov Xabibullo Ne’matullayevich

Axborot ochiqligining korporativ boshqaruvdagi roli va investorlarni jalb qilishdagi ta’siri 2023
Shukurova Xilolaxon Darvinxo‘ja qizi, Shukurov Jakhongir Sa’dulla o‘g‘li

Экономические основы развития и повышения эффективности торговых услуг в узбекистане 2027
Мусурмонова Мухлиса Самандар кизи

Ijtimoiy sohani rivojlantirishda davlat budjet xarajatlaridan samarali foydalanish yo‘llari 2032
Ajibayeva Rauiya Maxsutovna

Avtomobil chegara bojxona postlarida bojxona ma'murchiligini yanada takomillashtirish yo'llari 2036
Raxmonova Nargiza Rashidovna

К вопросу о подготовке кадров для индустрии туризма и гостеприимства Республики Узбекистан 2042
Хисамутдинова Альбина Фанисовна

Tijorat banklarida daromad va xarajatlarning tahlili va auditini takomillashtirish 2047
Mirzayev Faxriddin Sobirjonovich

Yaponiya davlat xizmati tizimi: tuzilishi, ishga qabul qilish va kadrlar boshqaruvining mexanizmlari 2051
Abdukarimov O'tkir Xamzaevich

Infratuzilma loyihalarini moliyalashtirish uchun investitsiyalar kiritish 2055
Musoyev Behruz Shaxobjon o'g'li

Iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb etishning moliyaviy mexanizmlari 2060
Skuybida Yevgeniy Vladimirovich

Mintaqaning investitsion imkoniyatlarini oshirishda xorij tajribasi 2065
Masharipov Sardorbek Farxadovich

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) islohotlari va amaliyotdagi muammolar 2070
Aipova Iroda Ikramovna

Yashil moliyalashtirish va uning yashil iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishdagi roli 2076
Yuldashev Farhodbek Abdumutalibovich

Prudensial nazorat mohiyati, zarurligi va uni amaliy ahamiyati 2081
Abdunazarova Dilshoda Akromovna

Banklararo to'lov tizimi mexanizmini rijovlantirish istiqbollari 2085
Abduraximova Feruza Alisherovna

Banklarda aholi depozitlarini xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini takomillashtirish 2092
Azizova Gulrux Xolmamat qizi

Electricity demand forecasting in case of Uzbekistan 2098
Otabaev Yodgorbek Marim o'g'li

Kredit-modul muhitida talabalar mustaqil ishlarining tashkiliy tuzilmasi 2105
Iskandar Allazov

Sanoat korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni aniqlovchi ko'rsatkichlar tahlili hamda samaradorlikni ekonometrik modellashtirishning obyektiv zarurligi 2110
Ruzmetov Davron Ibrogimovich, Saburov Javohir Kaxramon o'g'li

O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishda hududiy resurslardan samarali foydalanish yo'llari 2123
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna

Цифровая трансформация производственных предприятий: опыт внедрения SAP S/4HANA в uzauto motors 2130
Юсупов Равшанбек Аминбаевич, Хусаинов Ғолиб Рашидович

Xorazm viloyati iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlashning ustuvor vazifalari 2137
Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li

Elektr energiyasini ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va uning muqobil manbalaridan foydalanish imkoniyatlarini oshirish yo'llari 2141
Urmanbekova Iroda Farxodovna

Jahon moliya tizimida kriptovalyutalarning roli: evolyutsiya va rivojlanish dinamikasi 2146
Jo'rayev Yahyo Ikromjon o'g'li

Moliyaviy marketing va fond bozori: qanday qilib investorlar ishonchini yo'naltirish mumkin? 2150
Mirmahmudova Nozima Xusniddinovna

Comparative literature, linguistics, and translation studies: convergences and contrasts 2154
Tillayeva Sh. M.

Tijorat banklarida dividend siyosatining joriy holati 2159
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna

Oilaviy tadbirkorlik doirasida gulchilikni rivojlantirish 2165
Nurmatova Dilola Dilshod qizi

Factors for developing innovative infrastructure in Uzbekistan 2170
Uzaydullaev Sherzod Shukurullaevich

Raqamli transformatsiya va boshqaruvda avtomatlashtirish 2181
Rasulova Nargiza Shavkatovna

Budjet tashkilotlarda asosiy vositalarning eskirishi va unga qo‘yiladigan chora tadbirlar 2184
Shakarov Qulmat Ashirovich

O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbolli yo‘llari 2189
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi

Islomiy moliyaviy instrumentlar va ularni hisobga olishning tijorat banklari buxgalteriyasiga ta’siri 2195
Valiyeva Oydin Orifjonova

Estetik va lingvistik komponentlarning integratsiyasi: badiiy matnlar asosida til o‘rgatish tajribalari 2201
Salomova Malika Zoxirovna

Til o‘rgatishda noverbal kommunikatsiyaning psixolingvistik asoslari 2206
Kazakova Dilora Gaffarovna

Adabiy matnlar orqali til o‘rgatish: ingliz adabiyotidagi obrazlar asosida til kompetensiyasini 2210
Shoyimqulova Mahzuna Shavkatovna

Iste’molchilar motivasiyasida afzal ko‘rish nazariyalaridan foydalanish 2214
Jalilov Jamshid G‘anijonovich

Davlat xaridlari tizimida shaffoflikni ta’minlash orqali budjet samaradorligini oshirish yo‘llari 2220
Turganbaev Nursultan Bayram ulí

Hududiy notenglikni kamaytirishda ta’lim resurslarini boshqarish strategiyasi 2224
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna

Adapting Global Project Management Frameworks for Innovation in Transitional Economies: A Case Study of Uzbekistan’s Textile Industry 2229
Qingming Dong

Тенденции развития финансового рынка в узбекистане 2234
Мадреимов Айтбай Оразбаевич, Мамутов Кутлымурат Зафар улы

Экономическая сущность монетарной политики 2239
Шомуродов Равшан Турсункулович

Mintaqada turizm sanoatini modernizatsiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari 2247
Salayeva Dilrabo Abdullayevna

Тенденции и перспективы развития международного туризма в узбекистане 2251
Мамаризоев Жахонгир Исохонович, Тураева Сурия Тельмановна

LMA va LSTA tajribasi asosida o‘zbekistonda sindikatlashtirilgan kreditlash tizimini rivojlantirish yo‘llari 2256
G‘ofurov Javohir Jahongir o‘g‘li

Namangan viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyatini innovatsion rivojlantirish 2261
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o‘g‘li, Rasulov Ulug‘bek Obidjon o‘g‘li

Milliy iqtisodiyotni barqaror o‘sish sharoitida hududlarning investitsion jozibadorligini oshirishda hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash masalalari 2266
Alimov Ilxomjon Ikromovich, Ikramov Akmalbek Ilxomjon o‘g‘li

Приоритетные направления дальнейшего развития экономики путем совершенствования операций с ценными бумагами акционерных обществ 2271
Ботиров Азамат Ахмедович, Маликова Угилой Абдурасуловна

Barqaror iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy inkluzivlikning rolini kuchaytirish; resurslar taqsimotining tizimli yondashuvi 2276
Xomidova Kamola G‘olib qizi

Xorijiy mamlakatlarda bank-moliya sohasi rivojlanishida sun’iy intellekt va yuqori texnologiyalarning ta’siri 2286
Musagaliyev Ajiniyaz Jumagulovich

MS Excel dasturidagi son ko‘rinishida bo‘lgan pul miqdorini o‘zbek tilidagi so‘zlar bilan ifodalash 2291
Tojiyev Ilhom Ibraimovich, To‘rayeva Feruza Dilmurodovna

Joydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati 2299
Javliyeva Gulasal Bahriddin qizi

Yashil logistika konsepsiyasining barqaror rivojlanishda tutgan o‘rni 2305
Boltayeva Shaxnoz Bebudovna, Muxamedova Sevara Azamatovna

Turizm biznesi tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati 2312
Xudoyberdiyeva Hilola Himmatovna

O‘zbekiston iqtisodiyotining rivojlanishida mintaqalar iqtisodiyotining ahamiyati va rivojlanish jarayonlarining empirik tahlillari 2314
Toshaliyeva Saodat Toxirovna

Innovatsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish orqali tadbirkorlik subyektlarini qo‘llab-quvvatlash 2320
Jubanova Bayramgul, Xojamuratova Guljaxan Nishanbay qizi

Islom iqtisodiyotining o‘ziga xos xususiyatlari 2326
Muyassar Ziyaviddinovna Muxitdinova, Dilshod Sagdullayevich Muxitdinov

Xorazmda etno-folklor turizmini rivojlantirish: madaniy meros va barqaror taraqqiyot istiqbollari 2338
Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich, Raimova Nilufar Abdullayevna

Innovatsion faoliyatni moliyalashtirishda investitsiya darajasini optimallashtirish: empirik tahlil va ekonometrik yondashuv 2344
Suhrob Turanov

Mahsulot diversifikatsiyasini amalga oshirish mexanizmini takomillashtirish masalalari 2352
Tuychiyeva Odina Nabiyevna

Mintaqada turizmning muhim ko‘rsatkichlarini istiqboldagi prognoz qiymatlarini ishlab chiqish 2358
Jumaniyazova Sharifa Rashidovna

O‘zbekistonda kichik biznes subyektlari eksport salohiyatini oshirish: tahlil va prognozlash 2366
Sharopova Nafosat Radjabovna

Роль центрального банка в контроле инфляции: политика инфляционного таргетирования 2372
Пиримкулов Фирдавс Шуҳратович, Камилова Наргиза Абдукахоровна

Shaxsiy sug‘urta turlarini amalga oshirishning huquqiy asoslari 2378
Isaeva Xolbibi Boboqulovna

O‘zbekiston tijorat banklarida passivlarni hisobga olish holatining tahlili 2382
To‘rayev Erkin Eshkabilovich

Jismoniy tarbiya va sport tashkilotlari xizmatlari sifatini yaxshilashda marketingning ahamiyati 2386
B.Y.Hamraev

O‘zbekistonda kutilayotgan uzoq umr ko‘rish davomiyligini prognozlash va uning aktuar hisoblarga ta’siri 2391
Qodirov Farxod Amirovich, Axmedova Zilola Zafar qizi

The role of tax incentives in attracting investments and assessing their effectiveness 2397
Kudiyarov Kishibay

Bringing the underground economy into the official economy through financial channels 2403
Koshanov Abdimurat Azat uli, Erkinbaeva Shaxnoza

Tijorat banklarida kreditlash jarayonini boshqarishda buxgalteriya hisobining ahamiyati 2409
Umarov Zafar Absamatovich

Osiyo mamlakatlarining xalqaro investitsiya muhitini yaxshilashda ikki tomonlama soliqqa tortishni bartaraf etish vositalaridan foydalanish tajribasi 2413
Rajapov Shuxrat Zaripbayevich

Iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda “yashil” moliyaning roli 2424
Meliqo‘zieva Dilrabo Muxitdin qizi

O‘zbekistonda eksportni sug‘urtalash mexanizmlari: mavjud holat va takomillashtirish yo‘llari 2430
D.E.Qarshiev

Moliyaviy barqarorlikni raqamli texnologiyalar bilan mustahkamlash: korxona darajasidagi yondashuvlar 2435
Soibov Nozimbek Faxriddin o‘g‘li

Tadbirkorlikni samarali boshqarishda va raqamli texnologiyalardan foydalanishda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi 2440
Sattarov Xayrulla Fayzullayevich

Роль возобновляемых источников энергии в обеспечении устойчивого развития 2443
А.И. Тураева

Budjet daromadlrini shakllntirishda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘ining tutgan o‘rni 2448
Gulmurodova Marjona Olimjon qizi, Jo‘rabekova Xumora Muzaffar qizi, Umida Yuldasheva

Investitsion muhit tushunchasining makroiqtisodiy tahlili va nazariy model 2454
Saidov Rasul Boltabayevich, Jo‘rabekova Xumora Muzaffar qizi

Buxgalteriya hisobining konsepsiyasi va prinsiplari 2458
Tulaev Mirzakul Salamovich

Raqamli valyutani joriy etishning pul-kredit tizimiga ta’siri masalalari 2464
Yakubova Shamshinur Shuxratovna

Tijorat banklarida moliyaviy xizmatlar sifatini oshirish va barqaror rivojlanish strategiyalari 2470
Valiyev Doniyor Baxtiyor o‘g‘li

Jismoniy shaxslar soliqlari bo‘yicha hududiy prognozlashda statistik va ekonometrik modellardan foydalanish tajribasi 2475
Babayev Shavkat Bayramovich

Soliq tizimida raqamlashtirishni takomillashtirish orqali soliqlarni undirishning metodologik muammolari 2481
Muxammadov Nodir Karimovich

SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI

Muxammadov Nodir Karimovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
mustaqil tadqiqotchi i.f.f.d. (PhD
E-mail: nodir.muhammadov@gmail.com
ORCID: 0009-0008-2029-6968

Annotatsiya: Ushbu ilmiy ishda soliq tizimida raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirish orqali soliqlarni undirishda uchraydigan metodologik muammolar tahlil qilingan. Soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalarning joriy etilishi, soliq to'lovchilar bilan munosabatlarda shaffoflikni oshirish hamda soliq bazasini kengaytirish imkoniyatlari yoritilgan. Shuningdek, mavjud axborot tizimlarining integratsiyasi, katta hajmdagi ma'lumotlarni qayta ishlash, sun'iy intellekt va blokcheyn texnologiyalarini joriy etish zarurati asoslab berilgan. Muallif tomonidan raqamlashtirish orqali soliq tushumlarini barqaror oshirish va soliqqa oid munosabatlarda ishonchli nazorat mexanizmlarini shakllantirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: soliq tizimi, raqamlashtirish, soliq ma'murchiligi, soliqlarni undirish, metodologik muammolar, raqamli texnologiyalar, axborot tizimlari integratsiyasi, sun'iy intellekt, blokcheyn, ma'lumotlar xavfsizligi, shaffoflik, soliq tushumlari samaradorligi.

Abstract: This scientific work analyzes methodological problems encountered in tax collection through improving digitalization processes in the tax system. The possibilities of introducing digital technologies in tax administration, increasing transparency in relations with taxpayers, and expanding the tax base are highlighted. The need for integration of existing information systems, processing of large amounts of data, and the introduction of artificial intelligence and blockchain technologies is also substantiated. The author has developed practical proposals for a sustainable increase in tax revenues through digitalization and the formation of reliable control mechanisms in tax relations.

Key words: tax system, digitalization, tax administration, tax collection, methodological problems, digital technologies, integration of information systems, artificial intelligence, blockchain, data security, transparency, efficiency of tax revenues.

Аннотация: В данной научной работе анализируются методологические проблемы, возникающие при сборе налогов посредством совершенствования процессов цифровизации налоговой системы. Выделены возможности внедрения цифровых технологий в налоговое администрирование, повышения прозрачности взаимоотношений с налогоплательщиками и расширения налоговой базы. Обоснована необходимость интеграции существующих информационных систем, обработки больших объемов данных, внедрения технологий искусственного интеллекта и блокчейна. Автором разработаны практические предложения по устойчивому росту налоговых поступлений посредством цифровизации и формирования надежных механизмов контроля в налоговых отношениях.

Ключевые слова: налоговая система, цифровизация, налоговое администрирование, сбор налогов, методологические проблемы, цифровые технологии, интеграция информационных систем, искусственный интеллект, блокчейн, безопасность данных, прозрачность, эффективность налоговых поступлений.

KIRISH

Hozirgi davrda soliq tizimini samarali boshqarish va soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirishda raqamlashtirish jarayonlari alohida ahamiyat kasb etmoqda. Jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, soliq ma'murchiligida raqamli texnologiyalarni qo'llash nafaqat soliqlarni to'liq va o'z vaqtida undirish imkonini beradi, balki soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtasidagi munosabatlarda shaffoflik va ochiqlikni ham sezilarli darajada oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasida ham “Raqamli O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasida soliq tizimini modernizatsiya qilish, soliq ma’lumotlarini elektron shaklda qayta ishlash, yagona axborot bazalarini yaratish va integratsiyalash, shuningdek, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi ilg‘or texnologiyalarni amaliyotga joriy etish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Kelgusida bu jarayon yanada chuqurlashib, soliq ma’lumotlarini standartlashtirish, axborot tizimlari o‘rtasida integratsiyani kengaytirish, ma’lumotlar xavfsizligini mustahkamlash hamda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo‘yicha ilmiy-metodologik asoslarni to‘liq shakllantirish bo‘yicha keng imkoniyatlar mavjud.

Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi soliq tizimida raqamlashtirishni yanada takomillashtirish orqali soliqlarni undirish samaradorligini oshirish istiqbollarini aniqlash hamda ushbu yo‘nalishda ilmiy va amaliy takliflar ishlab chiqishga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hozirgi davrda O‘zbekiston Respublikasi soliq ma’muriyatshiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo‘llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhi keltiriladi. Soliq majburiyati — jismoniy shaxs, korporatsiya yoki boshqa yuridik shaxsning davlat oldidagi soliq qarzining umumiy summasidir. Daromad solig‘i, savdo solig‘i va kapital daromad solig‘i soliq majburiyatlarining barcha shakllaridir (Jonson, 2022) [1].

Soliq majburiyatining ta’rifi jismoniy yoki yuridik shaxsning davlatga soliq bo‘yicha qarzi bo‘lgan pul yoki qarz miqdorini anglatadi (Jozepson, 2022). Demak, soliq majburiyatlari va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash o‘zaro bevosita bog‘liqdir. Ushbu tadqiqot doirasida soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash tushunchasining iqtisodiy mohiyatini ochib berish ko‘zda tutiladi. Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash — jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini qonunga xilof ravishda kamaytirish maqsadida amalga oshiriladigan keng ko‘lamli faoliyatdir. Soliq majburiyatlari soliq tizimlarining standart va huquqiy jihati bo‘lib, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash firibgarlik orqali ushbu majburiyatlardan qochish yoki ularni kamaytirishga qaratilgan jinoiy harakat sifatida izohlanadi [2].

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash tarix davomida turli mamlakatlarda keng tarqalgan. “Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash” atamasi soliqlarning adolatli ulushini to‘lashni istamaydiganlar tomonidan amalga oshiriladigan keng ko‘lamli faoliyatni o‘z ichiga oladi (Ovusu va boshq., 2019). Daromadni kamaytirib ko‘rsatish, chegirmalarni ortiqcha qayd etish va moliyaviy hujjatlarni manipulyatsiya qilish soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash strategiyalarining misolidir (Ozili, 2020). Shu bilan birga, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash natijasida davlat byudjetida yuzaga keladigan yo‘qotishlar sezilarli darajada bo‘lishi mumkin [3].

Ko‘pgina soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha tadqiqotlar individual xatti-harakatlarni aniq kontekstda o‘rganadi (Alm va boshq., 2019). Axloqiy qadriyatlar, ishonch, munosabat, idrok, niyat, xabardorlik, madaniyat, dindorlik, bilim va ta’lim kabi individual omillar muhim o‘rin tutadi. Shaxsiy daromad solig‘i bunday xatti-harakatlar ko‘rib chiqiladigan eng keng tarqalgan obyekt bo‘lib, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha nazariy va empirik ishlarning aksariyati shaxsiy daromad solig‘iga qaratilgan (Efeeloo va Dik, 2018). Jismoniy shaxslar daromadlarini kam hisobot qilish, chegirmalar yoki kreditlarni asossiz orttirib ko‘rsatish, soliq deklaratsiyasini o‘z vaqtida topshirmaslik yoki umuman soliq to‘lamaslik orqali daromad solig‘idan qochishlari mumkin. Xuddi shunday, firmalar ham daromadni past ko‘rsatishi, chegirmalarni bo‘rttirishi yoki yuridik shaxslarning daromad solig‘i bo‘yicha deklaratsiyani taqdim etmasligi mumkin [4].

Adabiyotlarda iqtisodiy omillar sifatida soliq stavkalari, moliyaviy cheklovlar, daromad darajasi, soliq yuki, korrupsiya, iqtisodiy tuzilma, audit, jarima va ishsizlik qayd etiladi. Rishardson (2016) soliq to‘lashdan bo‘yin tovlashda iqtisodiy omillarga qaraganda iqtisodiy bo‘lmagan omillar ko‘proq ta’sir ko‘rsatishini ta’kidlaydi. Keyingi tadqiqotlarda korrupsiya va soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash keng tarqalgan muammolar sifatida ko‘riladi. Korrupsiya — hokimiyat va vakolatli shaxslar yoki korporatsiyalar tomonidan noqonuniy afzalliklar olish yoki hokimiyatni shaxsiy manfaat yo‘lida suiiste’mol qilishdir (Khlif va Amara, 2019). Ishsizlik esa ma’lum yoshga yetgan, haq to‘lanadigan ishda yoki mustaqil mehnat faoliyatida qatnashmagan, lekin ayni paytda ish qidirayotgan shaxslar sifatida belgilanadi (Tabandeh va Tamadonnejad, 2015). Tadqiqotlarga ko‘ra, ishsizlik yashirin iqtisodiyotning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi [5].

Soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash bo‘yicha so‘nggi izlanishlarda yuqorida qayd etilgan iqtisodiy va noiqtisodiy omillardan tashqari boshqa determinantlar ham ko‘rib chiqiladi. Jumladan, davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korporativ ijtimoiy mas’uliyat va ma’lumot tarqatishning ta’siri kabi omillar alohida ahamiyatga ega. So‘nggi o‘n yilliklarda hukumatlar internet texnologiyalarining davlat xizmatlarini soddalashtirish va samaradorligini oshirish imkonini berishini tushunib, aholisi bilan o‘zaro muloqotda internetdan faol foydalanmoqda (Uyar va boshq., 2021; Montenegro, 2021). Nihoyat, hushtakbozlik instituti ham muhim omillardan biridir. Hushtakboz — xususiy, davlat yoki jamoat tashkilotlari doirasida noqonuniy, axloqsiz, firibgarlik yoki davlat mablag‘larini suiiste’mol qilish bilan bog‘liq bilim va faktlarni oshkor qiluvchi shaxsdir. Hushtakbozlik tizimlarini joriy etish audit jarayoniga qo‘shimcha aniqlik kiritadi va nazorat samaradorligini oshiradi (Masslet va boshq., 2019) [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda ma’lumotlar soliq qo‘mitalari hisobotlari, rasmiy statistika bazalari hamda xalqaro tashkilotlarning ochiq ma’lumotlaridan olindi. Shuningdek, mavjud qonunchilik hujjatlari va amaliy tajribalar tahlil qilindi. Olingan ma’lumotlar qiyosiy va statistik usullarda qayta ishlanib, ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida umumlashtirildi hamda metodologik xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

AQSh – ilk raqamli soliq ma’murchiligi (1970–1980-yillar). AQShda soliqlarni raqamli asosda undirishning ilk metodologik asoslari 1970-yillarda shakllana boshladi. 1986-yilda Ichki daromadlar xizmati (IRS) tomonidan elektron hisobot topshirish tizimi (e-filing) joriy etildi. Ushbu tizimning metodologiyasi soliq to‘lovchilar deklaratsiyalarini elektron shaklda qabul qilish, avtomatik qayta ishlash va xatoliklarni elektron yo‘l bilan bartaraf etishga qaratilgan bo‘lib, AQSh tajribasi keyinchalik ko‘plab davlatlar uchun uslubiy asos bo‘lib xizmat qildi.

Yevropa Ittifoqi va Skandinaviya davlatlari – tizimli model (1990-yillar). 1990-yillardan boshlab Germaniya, Fransiya, Buyuk Britaniya hamda Skandinaviya davlatlari (Shvetsiya, Norvegiya, Daniya) raqamli soliq ma’murchiligini rivojlantira boshladi. Estoniya 1994-yildan “E-Tax” tizimini ishga tushirib, soliq hisobotlarining 95 foizdan ortig‘ini onlayn qabul qilish imkoniyatini yaratdi. Estoniya modelining asosiy metodologik xususiyati — ma’lumotlar bazalarining to‘liq integratsiyasi hamda fuqaro–davlat–biznes munosabatlarining raqamli avtomatlashuvidir. Shu tariqa Yevropa mamlakatlarida raqamli soliq tizimi shaffoflik, avtomatizatsiya va integratsiyaga asoslangan model sifatida shakllandi.

Yaponiya va Janubiy Koreya – texnologik innovatsiyalar asosidagi metodologiya (2000-yillar boshi). Janubiy Koreya 2001-yildan onlayn deklaratsiya va elektron hisob-fakturalar tizimini joriy etdi. Asosiy metodologik yondashuv — soliq organlari va to‘lovchilar o‘rtasidagi hujjat aylanmasini to‘liq raqamli muhitga o‘tkazishdan iborat bo‘ldi. Yaponiyada 2004-yildan “e-Tax” milliy platformasi ishga tushirilib, elektron imzo va sertifikatlar orqali huquqiy kuchga ega hisobot topshirish imkoniyati yaratildi. Bu model qonunchilik bazasi, raqamli infratuzilma va soliq xodimlarining raqamli kompetensiyasiga alohida e’tibor qaratishi bilan ajralib turadi.

Xitoy – markazlashgan nazorat metodologiyasi (2010-yillar). 2010-yillarda Xitoyda “Golden Tax Project” dasturi asosida barcha soliq operatsiyalari yagona raqamli tizimda yuritila boshlandi. Ushbu metodologiya soliq organlari, bojxona, bank va biznes subyektlari ma’lumotlarini markazlashgan holda nazorat qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, katta ma’lumotlar (Big Data) va blokcheyn texnologiyalaridan keng foydalanish bilan ajralib turadi.

O‘zbekiston – bosqichma-bosqich raqamlashtirish (2010-yillardan buyon). O‘zbekistonda raqamli soliq ma’murchiligi bosqichma-bosqich rivojlanmoqda:

2012–2015-yillar – elektron hisobot topshirish tizimi joriy etildi;

2016-yildan – onlayn kassa apparatlari va elektron chek tizimi yo‘lga qo‘yildi;

2020-yildan – “my.soliq.uz” yagona platformasi ishga tushirildi.

O‘zbekiston tajribasi Estoniya (integratsiya va shaffoflik) hamda Janubiy Koreya (onlayn deklaratsiya va elektron hisob-faktura) modellariga suyangan holda rivojlanmoqda.

Soliq tizimini raqamlashtirish metodologiyasi ilk bor AQShda shakllangan bo‘lib, keyinchalik Yevropa, Yaponiya va Janubiy Koreya tajribasida mukammallashdi. Xitoy esa markazlashgan nazorat tizimini yaratdi. O‘zbekistonda esa jarayon 2010-yillardan boshlab bosqichma-bosqich rivojlanib kelmoqda.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda soliqlarni yig‘imdorligini oshirish va ma’murchilikni takomillashtirish maqsadida raqamli texnologiyalar keng joriy qilinmoqda. “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida elektron hisobot tizimlari, yagona axborot platformalari va “E-Soliq” tizimi bosqichma-bosqich rivojlantirilmoqda. Shu bilan birga, istiqbolda yanada samarali natijalarga erishish uchun quyidagi yo‘nalishlarda katta imkoniyatlar mavjud:

• Metodologik asoslarni yanada boyitish. “Big Data”, sun’iy intellekt va blokcheyn kabi ilg‘or texnologiyalarni soliq tizimiga tatbiq etishda yagona ilmiy-nazariy yondashuvlar ishlab chiqilishi kutilmoqda.

• Integratsiya jarayonlarini kengaytirish. Soliq organlari, bojxona, moliya, bank va kadastr tizimlari o‘rtasida axborot almashinuvi tobora uyg‘unlashib, yagona makonni shakllantirish yo‘lida rivojlanmoqda.

• Infratuzilmani mustahkamlash. Hududlarda internet sifati va texnik ta’minotni yaxshilash, shuningdek, soliq xodimlarining raqamli kompetensiyasini oshirish orqali umumiy tizimning barqarorligi ta’minlanadi.

• Axborot xavfsizligini kuchaytirish. Soliq to‘lovchilarning shaxsiy ma’lumotlari va moliyaviy operatsiyalarini himoya qilish mexanizmlari yanada takomillashib boradi.

• Amaliy samaradorlikni oshirish. Elektron tizimlarning imkoniyatlari kengayib, byurokratik to‘siqlar qisqarishi va nazorat mexanizmlarining zamonaviy talablarga mos ishlashi kutilmoqda.

Umuman olganda, O‘zbekistonda soliq tizimini raqamlashtirish jarayoni jadal sur’atlarda rivojlanmoqda va uning samaradorligini yanada oshirish uchun metodologik, tashkiliy hamda texnologik yondashuvlar kompleks asosda bosqichma-bosqich amalga oshirilishi prognoz qilinmoqda.

Respublikamizning soliq tizimi o‘z ichiga ikki asosiy vazifani oladi: bir tomondan, davlat budjetini zarur daromadlar bilan ta’minlash, ikkinchi tomondan esa soliq to‘lovchilar faoliyatini rag‘batlantirish. Ushbu vazifalarni amalga oshirish uchun soliq tizimida iqtisodiy islohotlar olib borish, soliqning rag‘batlantiruvchi rolini oshirish, ularning budjet tizimiga barqaror ravishda tushishini ta’minlash maqsadida soliqni undirish usullarini qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek, soliq undirishni optimallashtirish, soliq qarzini kamaytirish va soliq yukini yengillashtirish zarur.

Soliq tizimidagi islohotlar mamlakatimizda soliq ma’murchiligining takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Soliq ma’muriyati, soliq qonunchiligiga muvofiq, davlat budjetiga soliq va majburiy to‘lovlarni undirish bilan bir qatorda, ularni to‘liq va o‘z vaqtida to‘lashini nazorat qilishni ta’minlaydi. Bu jarayon soliq to‘lovchilar va davlat soliq xizmati organlari o‘rtasida iqtisodiy munosabatlarni o‘z ichiga oladi.

Soliq qarzini kamaytirishda va soliq to‘lovlarini o‘z muddatida to‘liq undirishda soliq ma’muriyatini takomillashtirishni ilmiy tadqiqotlar doirasida o‘rganish zarurligi quyidagi masalalarga asoslanadi:

Soliq hisobotlari shakllarining takomillashmaganligi va hisobotlarni to‘liq avtomatlashtirmaganligi.

Soliq qarzining o‘sish tendensiyasining mavjudligi.

Soliq qonunchiligini takomillashtirish zaruratining mavjudligi.

Soliq xizmati organi tomonidan jismoniy shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzi yuzaga kelganidan so‘ng amalga oshiriladigan choralar mavjud. Qarzdorga soliq qarzi yuzaga kelgan kundan boshlab 3 ish kuni ichida inson omili bilan ogohlantirish talabnomasi beriladi, bu esa bevosita tashrif buyurish yoki pochta xizmati orqali, shuningdek, shaxsiy kabinetiga elektron tarzda yuboriladi. Agar qarzdor 10 kun ichida talabnomani tan olishi yoki rad etishi haqida ma’lumot bermasa, qarzdorlik tan olingan hisoblanadi.

Qarz oluvchi xizmat ko‘rsatuvchi bankiga soliq hisobotlarini taqdim etgandan so‘ng, o‘z vaqtida to‘lov topshirig‘ini berishi lozim. Bank inson omilisiz avtomatlashtirilgan tarzda inkasso topshirig‘ini yuboradi. Agar asosiy hisob raqamida mablag‘ bo‘lmasa va valyuta hisob raqami mavjud bo‘lsa, valyuta hisob raqamiga valyuta mablag‘larini sotish va soliq qarzini to‘lash bo‘yicha elektron topshiriq yuboriladi. Bank inkasso topshirig‘ini amalga oshirishni ta’minlaydi (valyuta mablag‘larini sotish va soliq qarzini to‘lash) yoki 2-son kartotekaga kirishni ta’minlaydi. Soliq organlari odatda jismoniy shaxslardan va yakka tartibdagi tadbirkorlardan soliq qarzlarini undirish bo‘yicha bir qator tadbirlarni amalga oshiradilar (1-rasm).



1-rasm. Soliq xizmati organi tomonidan yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarning soliq qarzi undirish harakatlari [1]

Bu yerda bajarilishi mumkin bo‘lgan asosiy qadamlar mavjud bo‘lib, ular soliq xizmatchilari qarzlar to‘g‘risida xabarnomalar (talabnomalar) yuborishidan iborat. Soliq xizmati qarzni undirishni ta’minlash uchun qarzdorning

1 Муаллиф томонидан солиқ қўмитасининг маълумотлари асосида тайёрланди.

bank hisoblarini “blokirovka” qilishni talab qilishi mumkin. Agar qarzdor qarzni tan olsa, belgilangan muddatdan so‘ng soliq organi qarorni majburiy ijro byurosiga ijro etish uchun yuboradi. Agar qarzdorlik tan olinmagan taqdirda, belgilangan tartibda sudga soliq qarzini undirish yuzasidan da’vo arizasi kiritish imkoniyati mavjud bo‘ladi.

Qarzlarni qoplashda qarzdorga tegishli yoki nazorat qilinadigan har qanday mablag‘larni soliq organlariga qarzlarni to‘lash uchun foydalanish jarayoni sifatida qaraladi. Bunda soliq xizmatlari organlari qarzdorlarning soliq to‘lovlarini kechiktirishi va bu mablag‘larni qarzni to‘lashga yo‘naltirishi mumkin, agar qarzdorning bank hisobvarag‘ida yoki boshqa aktivlarida mablag‘ mavjud bo‘lsa. Soliq xizmati bu mablag‘larni qarzni to‘lash maqsadida ishlatishi mumkin.

Bunda hujjatlarni tayyorlash bo‘lib, soliq qarzi mavjudligini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni to‘plash talab etiladi. Bunga soliq xabarnomalari, qarz hisob-kitoblari, shartnomalar va boshqa tegishli hujjatlar nusxalari kirishi mumkin. Mahalliy soliq qonunchiligi talablariga muvofiq, soliq qarzlarini undirish bo‘yicha talabnoma taqdim etiladi. Bunga qo‘shimcha ravishda, shaxsiy ma’lumotlar, soliq qarzi haqidagi ma’lumotlar va boshqa zaruriy ma’lumotlar ko‘rsatiladi (2-rasm).



2-rasm. Soliq to‘lovchilarning soliq qarzini undirishni tashkil etish bosqichlari[2]

Yuqoridagi rasmda soliq qarzlarini undirish uchun talabnoma yuborish ham bir necha bosqichlarni o‘z ichiga oladi. Bunday talabnomani topshirishda odatda bajariladigan umumiy qadamlar mavjud. Barcha kerakli hujjatlar talabnomaga ilova qilinadi va belgilangan tartibda talabnoma ko‘rib chiqiladi. Shuningdek, keyingi bosqichlarda bankka inkasso va valyuta topshiriqnomalari yuboriladi. Keyingi bosqichlarda qarzdorning mulkini ro‘yxatga olish va unga taqiq qo‘yish amalga oshiriladi. Mulkni hisobotdan chiqarish bo‘yicha sudga murojaat qilinadi, shuningdek, majburiy ijro buyurilishini ta’minlash uchun qaror qabul qilinadi. Bundan tashqari, bankrotlikni e’tirof etish yuzasidan zarur choralar ko‘rilishi mumkin. Shundan so‘ng qarzdorlikni undirish imkoni bo‘lmasa, subsidiar javobgarlik chorasi ko‘riladi.

Ogohlantirish talabnomasida aks ettirilgan tan olingan soliq qarzi qarzdor tomonidan talabnoma berilgan sanadan boshlab 15 kun ichida to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq organi tomonidan soliq qarziga nisbatan qarzdorning mol-mulkini xatlash yuzasidan avtomatik qaror shakllanadi va qarzdorning mol-mulki xatlanadi hamda elektron taqiq qo‘yiladi. Aks holda, sud tartibida xatlanadi va taqiq qo‘yiladi. Ogohlantirish talabnomasi berilgan kundan boshlab 60 kun ichida talabnomada ko‘rsatilgan soliq qarzi to‘liq to‘lanmagan taqdirda, soliq qarzini qarzdorning mulkidan undirish uchun sudga elektron tarzda onlayn da’vo arizasi yuborilishi mumkin.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida soliq qarzlarini undirish mexanizmi soliq ma’muriyatining o‘ziga xos xususiyatlarini o‘z ichiga oladi:

2 Муаллиф томонидан солиқ қўмитасининг маълумотлари асосида тайёрланди.

Raqamli infratuzilmaning rivojlanishi elektron hisobotni to‘liq yo‘lga qo‘yish imkonini beradi, ya’ni elektron shaklda taqdim etish soliq qarzdorligini aniqlash uchun ma’lumotlarni to‘plash va tahlil qilish jarayonini soddalashtiradi.

Avtomatlashtirilgan tekshirish tizimlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash soliq organlariga soliq hisobotlarini nazorat qilish va xatolar yoki qoida buzilishlarini aniqlashda yordam beradi.

Elektron xabar berish usullaridan foydalanish orqali soliq organlari soliq to‘lovchilarga qarz yoki qo‘shimcha ma’lumot berish zarurati haqida murojaat qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Elektron to‘lov tizimlari yordamida soliq to‘lovchilarga Internet-banking orqali soliq qarzlarini to‘lashning turli xil usullari taklif etilishi qarzdorlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Kiberxavfsizlik choralarini kuchaytirish orqali soliq organlari soliq to‘lovchilarning ma’lumotlarini kiberhujumlardan va axborot tarqalishidan himoya qilishi zarur.

Boshqa raqamli tizimlar bilan o‘zaro integratsiya natijasida soliq organlari avtomatik ravishda ma’lumot almashish imkoniyatiga ega bo‘ladi va soliq majburiyatlarining bajarilishini yanada samarali nazorat qilish uchun o‘z tizimlarini buxgalteriya yoki bank tizimlari bilan birlashtiradi.

Bu xususiyatlar mamlakatning raqamli siyosati va soliq tizimining o‘ziga xos jihatlariga qarab farqlanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, soliq tizimida raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirish nafaqat soliq qarzdorligini undirish mexanizmlarini soddalashtiradi, balki soliq ma’murchiligi samaradorligini oshirish, shaffoflikni ta’minlash va soliq to‘lovchilarning ishonchini mustahkamlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Elektron hisobot, avtomatlashtirilgan nazorat tizimlari, elektron to‘lov usullari va kiberxavfsizlikni ta’minlash orqali soliq organlari zamonaviy talablar darajasida faoliyat yuritishi mumkin. Natijada, mamlakat iqtisodiyotida barqarorlikni ta’minlash, davlat budjeti daromadlarini oshirish hamda soliqlarni undirishning samarali metodologiyasini shakllantirish uchun mustahkam asos yaratiladi. Shu bois, soliq tizimida raqamlashtirishni yanada kengaytirish va takomillashtirish istiqbollari iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiruvchi, ijtimoiy adolatni mustahkamlovchi va davlat moliyasining barqarorligini kafolatlovchi muhim omil sifatida baholanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O‘zbekiston Respublikasining 2007-yil 25 - dekabrdagi O‘RQ-136-son Qonuni bilan tasdiqlangan.
2. Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari. www.soliq.uz.
3. Efeeloo N. & Disk N. (2018). An Empirisal Review of the Determinants of Tax Evasion in Nigeria: Emphasis on the Informal Sestor Operators in Port Harsourt Metropolis. Journal of Assounting and Finansial Management, 4(3), 1–10.
4. Johnson Janet Berry (2022) Tax Liability: Definition, Salsulation, and Example. The investopedia team. Ostober 26, https://www.investopedia.som/terms/t/ taxliability.asp.
5. Josephson Amelia (2022) The Ultimate Guide to Tax Liability. November 16,. https://smartasset.som/taxes/tax-liability.
6. Masslet D., Montmarquette S. & Viennot-Briot N. (2019). San whistleblower programs reduse tax evasion? Experimental evidense. Journal of Behavioral and Experimental Esonomiss, 83, 101459. https://doi.org/10.1016/j.soses.2019.101459.
7. Owusu G.M.Y., Bekoe R.A., Anokye F.K., & Anyetei L. (2019). What Fastors Influense the Intentions of Individuals to Engage in Tax Evasion? Evidense from Ghana. International Journal of Publis Administration, 43(13), 1143–1155. https://doi.org/10.1080/01900692.2019.1665686.
8. Ozili P.K. (2020). Tax evasion and finansial instability. Journal of Finansial Srime, 27(2), 531–539. https://doi.org/10.1108/jfs-04-2019-0051.
9. Rishardson G. (2016). The Determinants of Tax Evasion: A Sross-Sountry Study. Finansial Srimes: Psyshologisal,Teshnologisal, and Ethisal Issues, 33–57. https://doi.org/10.1007/978-3-319-32419-7_2 .
10. N.K.Muxammadov “Ma’lumotlarni elektron hujjat aylanish tizimida shakllantirish orqali soliq ma’murchiligini takomillashtirish masalalari” mavzusidagi dissertatsiya ishi. Toshkent 2024 – yil, 156 bet.

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o‘g‘li

2025. № 4

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz